

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharifning taklifiga binoan shu yil 5-6-fevral kunlari ushbu mamlakatga davlat tashrifi barcha sohadagi ikki tomonlama munosabatlarimizda yangi sahifa ochdi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

GEOGRAFIK VA DAVR TO‘SIQLARINI YENGIB O‘TAYOTGAN MINTAQALARARO HAMKORLIKNING YUKSAK NAMUNASI



Ravshan FAZILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

➤ **Boshlanishi 1-betda**

Transport va logistika sohasidagi hamkorlik ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, Transafg'on transport yo'laklari orqali O'zbekistonni Pokiston portlari bilan bog'lash loyihalari mintaqaviy savdo va iqtisodiy integratsiya uchun katta imkoniyat yaratadi. Bu yo'nalish O'zbekistonning dengizga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda strategik ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda davlatlararo munosabatlarimiz strategik sheriklik darajasiga ko'tarilib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalar nafaqat ikki tomonlama, balki xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham izchil rivojlanmoqda. Rasmiy Toshkent va Islomobod o'rtasidagi siyosiy aloqalar yangi bosqichga chiqdi. Davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari, strategik sheriklikka oid kelishuvlar va hamkorlikka taalluqli bayonotlar buni yaqqol tasdiqlaydi.

Bugungi kunda ikki davlat xalqaro maydonda, jumladan, BMT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Ikki davlat rahbarlarining ochiq, konstruktiv va pragmatik tashqi siyosati natijasida O'zbekiston — Pokiston munosabatlari o'zaro ishonchli, teng va do'stona asosda kechmoqda. Siyosiy muloqot mustahkamlanib, parlamentlararo va idoralararo almashinuvlar jadal rivojlanmoqda.

2021-yil iyul oyida Strategik sheriklik o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya

imzolaniishi o'zaro hamkorlik rivojida muhim bosqich bo'ldi. Unda tomonlarning keng ko'lamli yo'nalishlarda hamkorlikni chuqurlashtirishdan o'zaro manfaatdorligi mustahkamlandi. Prezidentimizning 2022-yilda Pokistonga, 2025-yil fevral oyida esa Pokiston Islom Respublikasi Bosh vazirining mamlakatimizga tashrifi O'zbekiston — Pokiston strategik sherikligida yangi sahifa ochdi.

Davlatlarimiz o'rtasidagi parlamentlararo aloqalar izchil rivojlanib borayotir. Bu ikki mamlakat parlamentlari vakillarining tashriflari orqali yanada mustahkamlanmoqda. Parlament delegatsiyalari o'rtasidagi muntazam aloqalar, do'stlik guruhlari faoliyat yuritishi va qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish huquqiy tizimlarni yaqinlashtirishga, iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish uchun qulay me'yoriy bazani yaratishga xizmat qilmoqda.

O'zaro aloqalar savdo-iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlik va mintaqaviy barqarorlik, shuningdek, tarixiy va madaniy o'xshashlikka asoslangan. O'tgan qisqa davrda siyosiy muloqot va hamkorlikda katta muvaffaqiyatga erishildi. Birligina 2025-yil yakunlariga ko'ra, o'zaro savdo hajmi salkam 500 million dollarga yetdi. O'zbekistonda Pokiston kapitali ishtirokidagi 230 ga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda. To'qimachilik, farmatsevtika, kimyo, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarida ham kooperatsiya loyiholari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotir.

Ikki mamlakat o'rtasidagi aviaqatnovlar ko'paygani esa yurtimizga keluvchi sayyohlar, talabalar va tadbirkorlar soni ortishiga turtki bo'ldi. O'z navbatida, madaniy almashinuv, tarixiy yodgorliklar va madaniy an'anal bilan tanishish, ayniqsa, ishblarmonlik aloqalarini o'rnatishga keng imkoniyat yaratdi.

Ikki davlat tadbirkorlari ishtirokida biznes-forumlari tashkil etish orqali yangi investitsion loyihalar va shartnomalar imzolashiga zamin yaratilyapti. Bu esa ishblarmon doiralari o'rtasida savdo, investitsiya va boshqa sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharifning taklifiga binoan shu yil 5-6-fevral kunlari ushbu mamlakatga davlat tashrifi barcha sohadagi ikki tomonlama munosabatlarimizda yangi sahifa ochdi.

Ushbu tashrif nafaqat diplomatik muloqotning navbatdagi qadami, balki O'zbekiston — Pokiston strategik sherikligini aniq iqtisodiy mazmun, amaliy loyihalar va uzoq muddatli rejalar bilan boyitishga qaratilgan kompleks yondashuv namunasi

bo'ldi. Shu ma'noda, ushbu tashrifni iqtisodni rivojlantirish, yangi yo'llar va bozorlarga chiqish, ikki xalq o'rtasida do'stlikni mustahkamlash uchun xizmat qiladi, desak yangilashmaymiz.

Ayniqsa, oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi o'tkazilgani alohida ahamiyatga ega. Ushbu format ikki davlat munosabatlarining strategik xarakter kasb etganidan dalolat berib, hamkorlikni tizimli va muvofiqlashtirilgan tarzda rivojlantirish uchun institutsional poydevor yaratdi.

Ishblarmon doiralari o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik o'rnatish maqsadida O'zbekiston — Pokiston ishblarmonlari kengashini tashkil etish yuzasidan erishilgan kelishuv xususiy sektor o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalarni rivojlantirish, qo'shma korxonalar sonini ko'paytirish va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi. Bu esa ikki mamlakat iqtisodiyoti barqaror o'sishi va aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Qo'shma deklaratsiya va ustuvor sohalar bo'yicha kelishuvlarning salmoqli to'plami ham ikki davlat o'rtasidagi aloqalarda tub burilish yashash bilan birga strategik sheriklikning yangi istiqbolli yo'nalishlarini ochadi. O'z navbatida, bu hujjatlar ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni aniq yo'nalishlar bo'yicha huquqiy va amaliy jihatdan mustahkamlab, iqtisodiy o'sish, investitsiya oqimlari, texnologiyalar almashinuvi hamda xalqlarimiz farovonligini oshirishga olib keladi.

Tashrif davomida Prezidentimizga Pokiston Milliy fan va texnologiyalar universiteti faxriy doktori va professori unvonlari berilishi davlatimiz rahbarining ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim sohalaridagi islohotlar, mamlakatni izchil modernizatsiyalash, fan va texnologiyalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik hamda akademik aloqalarni mustahkamlashga qo'shgan ulkan hisssasi mahsulidir. Bunday qaror ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlik, ilmiy ta'limiy aloqalar, madaniy yaqinlik yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi.

Sirasini aytganda, bugun ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar o'zaro sheriklik va mushtarak manfaatlariga asoslangan rivojlanishning yangi bosqichini boshidan kechirmoqda. Global o'zgarishlar sharoitida ushbu hamkorlik geografik va siyosiy to'siqlarni yengib o'ta oladigan muvaffaqiyatli mintaqalararo munosabatlar namunasiga aylanishi mumkin.

Munosabat



POKISTON BOZORI mahalliy ishblarmonlarimiz uchun katta imkoniyat

Tadbirkor biror davlatga borganida, avvalo, uning ichki bozori, import mahsulotlarga bo'lgan talabi, mamlakatda biznes uchun yaratilgan muhit bilan qiziqadi, chuqurroq o'rganishga intiladi. Shu jihatdan Pokistonga bu galgi safarimiz kutilganidan ham samarali kechdi. Davlatimiz rahbarining Pokiston Islom Respublikasiga oliy darajadagi tashrifi doirasida bo'lib o'tgan yirik qo'shma biznes-forum esa biz, ishblarmonlar uchun qizg'in hamkorlik maydoniga aylandi.

Qariyb 100 dan ortiq mahalliy tadbirkordan iborat O'zbekiston delegatsiyasi forumda faol ishtirok etib, qator hamkorlik kelishuvlariga erishdi. Ular orasida sanoatning turli yo'nalishlarida ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan biznes vakillari bor. Farmatsevtika, oziq-ovqatdan tortib, yengil sanoat mahsulotlarigacha xaridorlarda katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, Pokiston bozorida elektrotexnika mahsulotlariga talab yuqori ekan ko'zga tashlandi. Muloqotlar davomida xaridorlar korxonamizda ishlab chiqarilayotgan televizor, konditsioner, yarim avtomat kir yuvish mashinalariga qiziqish bildirdi.

Hozir elektrotexnika sanoati yurtimizda jadal rivojlanib, milliy mahsulotlarimiz xorijda ommalasib borayotgani sir emas. Qaysi davlatga borsak, xaridorlarda katta qiziqish uyg'otaypti. Gap faqat narxda emas, sifat borasidagi ustunliklarimiz ham hamkorlar ishonchini oqlayapti. Shuning hisobiga eksport hajmi karrasiga oshib bormoqda.

Ishlab chiqarish quvvatlarimiz ham katta. Masalan, bizing korxonamiz 2021-yilda tashkil etilganiga qaramay, elektrotexnika mahsulotlarimizning yillik ishlab chiqarish quvvati 1 million 300 ming donadan oshdi. Yana 4 ta yangi zavod loyihasi ustida ishlaymiz. Keyingi yillarda yangi bozorlarga faol kirib bordik. Yirik maishiy texnika vositalarimiz Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Ozarbayjonga eksport qilinyapti. 2025-yilning ikkinchi yarmidan boshlab Afg'onistonga eksportni yo'lga qo'ydik. Ularda mahsulotlarimizga ishonch ham, qiziqish ham kutganimizdan yuqori bo'ldi. Qisqa vaqtda afg'onlar yirik xaridorlarimizdan biriga aylandi.

Sal avvalroq, joriy yilning fevral oyi boshida Iroqda bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazmada ham bunga guvoh bo'ldik. Bir necha kun davomida o'sha yerda bo'lib, yangi hamkorlar topishga erishdik. Ochiq'i, oldin bu bozorlarga chiqish qayoqda edi? Bir tomondan imkon, boshqa jihatdan qo'rquv bo'lardi. Hozir istalgan yangi bozorga dadil kirib boryapmiz.

Mamlakatimizning ochiqlik siyosati, eksport va tadbirkorlarni faol qo'llab-quvvatlayotgani bunga imkon beryapti. Mahalliy tadbirkorlarimiz xorijdagi tadbirlarda O'zbekiston delegatsiyasining asosiy qismi sifatida qatnashmoqda.

Pokistondagi biznes-forumga to'g'ri Iroqdagi xalqaro ko'rgazmadan o'tib bordik. Mezbonlar bizni juda iliq kutib oldi, tadbir ham qizg'in ruhda o'tdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharifning ishtiroki anjumam ahamiyatini yanada oshirdi. Davlatimiz rahbari har ikki mamlakat tadbirkorlari uchun qanday yordam kerak bo'lsa, barchasini yaratib berishini aytdi. Pokiston tomoni ham bunga tayyorligini bildirdi.

To'g'ri, Pokiston bilan o'zaro savdo aloqalarimiz avvaldan bo'lgan. Ammo keyingi yillarga kelibgina bu amaliy jihatdan faol tus oldi. Jarayonda bevosita tadbirkorlar faolligi oshib, ularni bir nuqtada uchrashtiradigan qator forum, ko'rgazmalar o'tkazish yaxshi an'anaga aylandi. Natijada so'nggi besh yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 2,5 baravar, qo'shma korxonalar va loyihalar soni esa 3 baravar oshdi.

Davlatimiz rahbarining 5-6-fevral kunlari Pokistonga oliy darajadagi tashrifi hamda imzolangan kelishuvlar o'zaro iqtisodiy hamkorlikka yangi sifat bag'ishlashi ta'kidlanmoqda. Tashrif doirasida o'zaro savdo hajmini 2 milliard dollarga yetkazishni nazarda tutuvchi bayonnoma imzolangan buning isboti. Mazkur raqam ayni paytdagi savdo aylanmasi ko'rsatkichidan deyarli uch baravar ko'p. Qolaversa, 3,5 milliard dollarlik istiqbolli savdo va investitsiya bitimlari portfelini ham shakllantirildi. Farmatsevtika, to'qimachilik, elektrotexnika, tog'-kon va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi sohalarida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kelishuvlariga erishildi.

Albatta, bu jarayonlarda bevosita tadbirkorlar asosiy ishtirokchiga aylanadi. Mahsulotlarimizning Pokistonga eksporti hajmi ortadi. Biznes-forum doirasida ushbu mamlakat bozori hamda ishblarmonlari



Shuhrat KOMILOV,
“Premier elektrotech”
korxonasi rahbari

faoliyatini chuqur o'rgandik. Mahalliy tadbirkorlarimiz uchun Pokiston bozorida katta potensial borligini ko'rdik. Deyarli 240 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladigan bu mamlakatda barcha sohalar jadal rivojlanmoqda. Shunga mos tarzda importga talab katta. Bizning mahsulotlarimiz esa narx va sifat jihatidan ularga ma'qul kelyapti.

Logistika yo'nalishidagi harakatlar eksport imkoniyatlarini yanada oshiradi. Mamlakatimizdan Pokistonga yangi yo'nalishlardagi yuk tashish, aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgani tadbirkorlar uchun qulaylik yaratmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning aprel oyidan yurtimizdan Karachiga yuk reyslari hamda Lahorga to'g'ridan to'g'ri yo'lovchi reyslari qo'yiladi. Bu mahsulotlarning yanada tezroq va ishonchli yetib borishiga xizmat qiladi.

Chunki eksportyorlarni qiziqitiradigan asosiy masalalardan biri yuk yetkazib berish muddatlaridir. Odatda xaridorlar qisqa vaqtda, arzonroq narxlarda mahsulot yetkazib beradigan tomonlar bilan kelishishga intiladi. Shu bois, bu borada eng maqbul yechim va takliflarni bera olishimiz kerak.

Qo'shma biznes-forum doirasida korxonamiz pokistonlik bir necha hamkor topishga erishdi. Ayni paytda hamkorlik bo'yicha muzokaralar o'tkazaymiz. Narx-navo, bojxona qiymatlari o'rganilib, umumiy kelishuvga erishiladi. Yaqin kelajakda pokistonlik ishblarmonlar faol hamkorlarimizdan biriga aylanishiga ishonamiz.

Bu borada Pokiston Savdo-sanoat vazirligi huzuridagi uyushma rahbari ham bizni doimiy qo'llab-quvvatlashi, hamkorlar topishda ko'maklashishini bildirdi. Yaqin oylarda Toshkentga kelish rejsi haqida gapirdi. Qolaversa, oliy darajadagi tashrif chog'ida joriy yil O'zbekistonda pokistonlik tadbirkorlar ishtirokida birinchi hududlararo forum o'tkazishga kelishilgani ahamiyatli. Bu o'zaro hamkorligimizni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Kuni kecha Prezidentimiz qishloq xo'jaligida yangi yerlarni o'zlashtirish va sohada ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Necha yillardan buyon shu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassis sifatida aytishim kerakki, taqdimotda ko'tarilgan masalalar bugunning ayni zarurati, zamon talabi. Chunki endilikda qishloq xo'jaligida oddiy tajribaga tayanish yetarli emas. Suv tanqisligi, iqlim va bozor talablari o'zgarishi fermerdan chuqur bilim va zamonaviy yondashuvni talab qilmoqda. Shuning uchun fermerlarning ilm saviyasini oshirish sohada eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi.



Najmiddin MIRABDULLAYEV,
O'zbekiston fermerlari kengashi
bo'lim boshlig'i

Amaliy kuzatishlar ko'rsatadiki, bilim yetishmasligi sabab hosildorlik pasayib, suv va o'g'itlar samarasiz sarflanmoqda. Vaholanki, ilmiy asoslangan agroteknologiyalar qo'llanilsa, kam resurs bilan yuqori natijaga erishish mumkin. Shu bois, taqdimotda qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Hozir Toshkent davlat agrar universitetida 13,6 ming talaba tahsil olayotgani, biroq o'quv jarayoni amaliyot bilan yetarligha bog'lanmagani sababli bitiruvchilarning

atigi 55 foizi o'z sohasida ishlayotgani ko'rsatib o'tildi. Shu munosabat bilan ta'lim, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarishni uzviy bog'laydigan tizim yaratish, mehnat bozori talabiga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash vazifalari belgilandi. Jumladan, kelgusida universitet talabalarining 6,8 ming nafari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar, korxonalar va agroklastarlarda, 2,6 mingdan ziyodi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi 22 ta ilmiy-tadqiqot institutida amaliyot o'taydi.

Fermer hamda uning xodimlari farzandlariga oliy ta'lim olish imkoniyati kengaytirilayotgani ham ayni muddao bo'ldi. Ya'ni ularning test sinovlarida ballari qabul parametrlariga yetmaganda, miqdori kamaytirilgan to'lov-kontrakt asosida universitetga qabul qilish, yetitta ta'lim

yo'nalishi bo'yicha o'qish davomiyligini 4 yildan 3 yilga qisqartirish taklif etildi. Talabalarni traktorchi-mashinist-guvohnomasi va agrodronlardan foydalanishga o'qitish yo'lga qo'yilishi aytiladi.

Fermer bilimlari bo'lsa, hosil ko'payadi, xarajat kamayadi, mahsulot sifati yaxshilanib, bozorga mos ish yuritish imkoni oshishi turgan gap. Buning uchun qishloq mulkdorlariga mo'ljallangan qisqa o'quv kurslari, amaliy seminarlar, onlayn ta'lim platformalari va agrar maslahat xizmatlarini rivojlantirish zarur. Ilmiy muassasalarda ishlab chiqilgan yangiliklarni to'g'ridan to'g'ri dalalarda qo'llash esa sohada sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi.

Shu maqsadda o'tgan yili O'zbekiston fermerlar kengashi tomonidan tegishli

vazirlik hamda mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda fermerlar bilimini oshirish bo'yicha o'qitish va malakalarini takomillashtirish yuzasidan ko'plab ijobiy ishlar qilindi. Xususan, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) hamkorligida ilk marotaba “Smart Farming for the Future Generation” loyihasi to'liq yakunlandi. Mazkur loyiha fermerlarni “aqlli” iqlim (climate-smart) texnologiyalari bilan ta'minlash va ularning amaliy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan bo'lib, unda 300 dan ortiq fermer, qishloq xo'jaliklari, yoshlar va biznes vakillari innovatsion texnologiyalar bilan tanishtirildi. Ulardan foydalanish o'rgatildi. Aynan shu loyihada ishtirok etgan fermerlar tomonidan ekin ekish, sug'orish va parvarishlashda

zamonaviy usullar qo'llanilishi natijasida hosildorlik 76 foizgacha o'sdi. Daromadlar sezilarli darajada ko'tarildi.

Oxirgi yillarda qishloq xo'jaligidagi istiqbolli loyihalar sirasiga Xitoyning qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chilik giganti — “Longping High-Tech kompaniyasi” O'zbekistonda faoliyatini boshlaganini aytib o'tish joiz. Bu kompaniya nafaqat Xitoy, balki dunyoning yetakchi agrar biotexnologiya kompaniyalaridan biridir. Kompaniya 40 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritib, O'zbekiston bozoriga 2018-yilda kirib keldi va 2025-yilga kelib, fermerlarning bilim darajasini oshirishda muhim natijalarga erishdi. Xususan, o'tgan yili Qashqadaryo viloyatida hosili yuqori bo'lgan “LP-618” paxta navi sinovdan o'tkazildi. Natija

kutilganidan yaxshi bo'ldi: mahalliy navlarga nisbatan 25-30 foiz yuqori hosil olindi. Nav kam suv talab qilishi barobarida issiqqa chidamlilik ko'rsatdi. Nav sinovi jarayonida 150 dan ortiq fermer ishtirok etib, navning xossalari va parvarish texnologiyasini amaliy o'rgandi.

Joriy yil yanvar-fevral oylarida yurtimizda paxta-g'alla yo'nalishida faoliyat yuritayotgan ilg'or fermer xo'jaliklarining 200 dan ortiq rahbari Xitoy va Turkiyaning paxtachilik hamda g'allachilik sohasida dunyoda yetakchi ilmiy tekshirish institutlari, qishloq xo'jaligi kompaniyalari ilmiy markazlarida tajriba oshirishiga ko'maklashildi.

Yil davomida fermerlarimizga sohamizda ilg'or davlatlar, jumladan, Pokistonning o'ziga xos tajribalarini o'rgatish rejalashtirilgan.

Umuman olganda, yuqorida qayd etganimizdek, qishloq xo'jaligi rivoji ilm-fan, zamonaviy bilim va innovatsiyalarga tayanmoqda. Buning uchun esa yetuk mutaxassis hamda ilg'or dehqonlar zarur. Taqdimotda aytilgan masalalar, tashabbus va g'oyalar ayni shunga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Nuqtayi nazar

FERMER BILIMLI BO'LSA, QISHLOQ XO'JALIGI RIVOJLANADI

Farovonlik xaritasi

REAL
NATIJALAR

islohotlar samaradorligining asosiy omili



Nozimjon ORTIQOV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va
islohotlar markazi
direktori o'rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Ushbu tizim tufayli har bir mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy profili shakllandi. Bu profilda ishsizlar soni, daromad topish darajasi, bo'sh yer va binolar mavjudligi, tadbirkorlik salohiyati, infratuzilimaviy cheklovlar kabi ma'lumotlar aks etdi. Mazkur sa'y-harakatlar umumiy qo'llab-quvvatlash choralaridan muayyan mahallaga moslashtirilgan manzilli vositalarga o'tishga xizmat qildi.

Bunday yondashuv kambag'allikni qisqartirish borasida yangi bosqichni boshlab berdi. 1,1 milliondan ortiq kam ta'minlangan oila uchun individual dasturlar amaliyotga joriy etildi. Hozir kam ta'minlangan har bir oila bilan alohida ishlanoqda.

Mahallabay tizimi shakllanishi natijasida kambag'allikka qarshi kurash ishlari amaliy va boshqariladigan tus oldi. Bu esa har yili 2,5-3 milliard dollar mablag'ni obodonlashtirish, odamlar turmush darajasini yaxshilash, infratuzilma va tadbirkorlikni rivojlantirishga yo'naltirish imkonini bermog'ga. 2025-yilda ishsizlik darajasi 4,8 foizgacha, kambag'allik esa 5,8 foizgacha pasaydi. Bu esa tanlangan modelning samaradorligini tasdiqlaydi.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida bugungi sharoitda mahallaning ahamiyatiga alohida urg'u berarkan, jumladan, bunday dedi: "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi. Aynan mahalladagi yo'l, suv, elektr va transport ta'minoti, bog'cha, maktab va oilaviy poliklinikadagi shart-sharoitlarga qarab, odamlar islohotlarimizga baho beradi. Shu bois, mahalla tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash orqali biz mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning qiyofasini yanada go'zal va obod qilish borasidagi ishlarni davom ettiramiz".

Davlatimiz rahbari sotsiologik tadqiqot natijalariga ko'ra, fuqarolarning 90 foizdan ortig'i o'zini mahalla jamoasining bir qismi deb his qilishini ta'kidladi. Bu ijtimoiy hamjihatlik va ishonch mahalliy darajadan yuqori ekanini aks ettiradi.

Shu ma'noda, 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilinishi yangi yondashuvning institutsional davomi bo'ldi. Endi qabul qilinayotgan qarorlarning samaradorligi aniq mahallalar va xonadonlar darajasida qanday amaliy natija berayotganiga qarab baholanoqda. Aynan shu yerda islohotlarning amaliy o'lchovi va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy natijalari shakllanadi.

Ixtisoslashuvni chuqurlashtirish va iqtisodiy imkoniyatni kengaytirish zarurati

2026-yilning bunday nomlanishi mahallaning aholi farovonligini oshirish va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyatining e'tirofi bo'ldi. Ushbu qaror islohotlarning keyingi bosqichi uchun aniq yo'nalish beribgina qolmay, mahallani ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishiladigan asosiy pog'ona sifatida mustahkamlaydi.

O'zbekistonda bugun 38 milliondan ziyod odam istiqomat qiladi. O'z navbatida, aholi har yili

o'rtacha 2 foiz ko'paymog'ga. Bunday demografik sharoitda ijtimoiy siyosat samaradorligi davlatning mahalliy darajada faoliyat yuritish va xonadonlarning haqiqiy turmush sharoitini inobatga olish qobiliyatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

Joriy yilga mo'ljallangan vazifalar markazida mahallalarning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va joylarda iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish turadi. Ustuvor yo'nalishlar sifatida infratuzilmani rivojlantirish, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, mas'ul xodimlar malakasini oshirish va monitoring tizimini raqamlashtirish belgilangan. "Mahalla — tadbirkor — bozor" yo'nalishidagi aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, mahallaning ijtimoiy birdamlik va fuqarolarning iqtisodiy o'zini namoyon qilish instituti sifatidagi mavqeiini kuchaytirish ham muhim vazifaga aylanmog'ga.

Murojaatnomada joriy yilga mo'ljallangan aniq va o'lchovli maqsadlar belgilangan. Jumladan, 1 million kishini doimiy ish bilan ta'minlash, 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish ko'zda tutilgan. Kambag'allik va ishsizlik darajasi 4,5 foizgacha pasaytirilishi zarur. Kambag'allikdan xoli mahallalar sonini 3500 taga yetkazish mo'ljallanoqda.

Mahallalardagi muammolar va ularni hal etish nuqtalarini aniqlashda alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz hududlarning iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda ixtisoslashuvni chuqurlashtirish bo'yicha topshiriq berdi. Bunda eng muammoli mahallalarga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Ular uchun infratuzilma, elektr ta'minoti va internetdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek, tomorqadan daromad manbai sifatida yanada samarali foydalanish ko'zda tutilmog'ga.

2026-yilga mo'ljallangan vazifalar mahallalardagi ishlarni kompleks tashkil etishni ko'zda tutadi. Gap barqaror bandlikni ta'minlash, daromad manbalarini yaratish, aholini bozorda talab yuqori kasb-hunarlariga o'qitish va fuqarolarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishga qaratilgan xizmatlar doirasini kengaytirish haqida. Kam ta'minlangan har bir oilaning haqiqiy imkoniyati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda alohida qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Loyihaviy



yondashuv doirasida shunday dasturlar bilan kam ta'minlangan 1 million fuqaroni qamrab olish rejalashtirilmog'ga.

Ushbu mantiq doirasida mahallabay tizimi 2026-yilga kelib, institutsional shakllanish bosqichidan manzillilikni chuqurlashtirish va oshirish bosqichiga o'tmog'ga. Murojaatnomada mahallalarni ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish, aholining bandligini ta'minlash hamda xonadonlar daromadini oshirish bo'yicha qo'yilgan vazifalar nafaqat siyosiy ustuvorlikka, balki tizimli tahliliy tadqiqotlar natijalariga ham asoslanadi.

Manzillilikni kuchaytirishda samaradorlik

Yangi yondashuvning o'ziga xosligi uning tahliliy jihatdan asoslanganidir. Birinchi marta hududlar 20 ta mezon bo'yicha chuqur tahlil qilindi. Bu 37 ta "og'ir" toifadagi tuman va 903 ta ana shu toifadagi mahallani aniqlash imkonini berdi. Aynan shu hududlarda mamlakatimizdagi kam ta'minlangan barcha oilaning qariyb uchdan biri atrofida, ya'ni 121 ming oila, shuningdek, barcha ishsizlarning 21 foizi yoki 155 ming kishi jamlangan. Ijtimoiy-iqtisodiy xavf-xatarlarning bunday to'planishi resurslarni manzilli yo'naltirishni iqtisodiy jihatdan oqlaydi va uni ijtimoiy jihatdan samarali qiladi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi mahallalar holati, hokim yordamchilari faoliyati samaradorligi, bandlik va kambag'allikni qisqartirish dasturlari natijadorligini muntazam o'rganib bormog'ga. Bu tadqiqotlar institutsional cheklovlar, hududlar o'rnatidagi tafovut hamda siyosatni amalga oshirishdagi zaif nuqtalarni aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, chora-tadbirlarni maqbullashtirish va davlat xarajatidan olinadigan samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Ushbu tahliliy ishning umumlashtiruvchi yakuniy bosqichi so'nggi yillarda mahalla darajasidagi keng qamrovli empirik tadqiqotlardan biri bo'ldi. So'rovnomma 8383 mahallani, ya'ni 93 foizni qamrab oldi. Bu mahallalarda 35,2 million kishi, jumladan, kam ta'minlangan 341 ming oila istiqomat qiladi.

Tadqiqotning keng qamrovli ekanini ham institutsional imkoniyatlarning, ham ushbu tizimlarni yanada rivojlantirish yo'nalishlarining haqiqiy manzarasini gavdalandirish imkonini berdi.

Hokim yordamchilari va "mahalla yettiligi" faoliyati

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining baholashiga ko'ra, islohotlarni amalga oshirish uchun asosiy institutsional infratuzilma allaqachon shakllanib bo'lgan. Hokim yordamchilari instituti deyarli to'liq joriy etilgan, bor-yo'g'i 90 ga yaqin lavozim vakant qolmog'ga. Shu bilan birga, 9000 dan ziyod mahallada "mahalla yettiligi" faoliyat yuritmog'ga.

Ushbu modelning barqarorligi uni joriy etish natijalari bilan tasdiqlandi. Hokim yordamchilarining 96 foizi o'z kasbiy faoliyatidan qoniqish bildirgan, 82 foizi esa KPI tizimi asosidagi baholash tizimida jiddiy muammolarni ko'rmayapti.

Shu bilan birga, tadqiqotlar muhim boshqaruv jihatlarini ham aniqlash imkonini berdi. Hokim yordamchilarining qariyb 45 foizi o'z faoliyatini tuman va shahar hokimliklari darajasida muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq deb bildi, 29 foizi esa kambag'allikni qisqartirish uchun mas'ul organlar bilan yanada yaqin hamkorlik qilish zarurligini ta'kidladi.

Mahallabay tizimi faoliyatining amaliy natijalari ham empirik jihatdan tasdiqlandi. Mahallalarning 89 foizida so'nggi 1-2 yilda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi o'sishi qayd etilgan. Mahallalarning 84 foizida muammoli kreditlar ulushi kamaygan, 73 foizida esa soliq intizomi yaxshilangan. Hokim yordamchilarining uchdan bir qismining ko'prog'i mahallalarda bandlik darajasi 30 foizdan ziyodga oshganini ta'kidladi. 17 foiz holatda esa mahallalar ishsizlikdan deyarli xoli hududga aylangan.

Barqaror daromad manbai

Tadqiqotning markaziy xulosalaridan biri mahallalar ixtisoslashuvining amaliy jihatdan tasdiqlangan mavqei bo'ldi. Bugun mahallalarning atigi 9 foizi chuqur ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan bo'lsa-da, aynan shunday hududlarda eng barqaror ijtimoiy-iqtisodiy natijalar kuzatilmog'ga. Bunday mahallalarda ishsizlik darajasi pastroq, ijtimoiy yordam oluvchilar ulushi ikki baravar kam, moliyaviy intizom esa sezilarli darajada yuqori.

Aholi daromadini tarkibi ham tabaqalashtirilgan yondashuv zarurligini tasdiqlamoqda. Mahallalarning 62 foizida asosiy daromad manbai qishloq xo'jaligi bilan bog'liq. Yirik shaharlar va iqtisodiy faol hududlarda xizmat ko'rsatish, o'zini o'zi band qilish va yollanna mehnatning ahamiyati ortib bormog'ga. Bu qo'llab-quvvatlashning universal modeli barcha hudud uchun bir xil samarali bo'la olmasligini



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

anglatadi. Kambag'allikni qisqartirishga yangicha yondashuvda nazarda tutilgan qiyosiy afzalliklar siyosati mustahkam tahliliy asosga ega.

Tadqiqot ixtisoslashuvning chuqurlashtirish va daromadning o'sishiga to'siq bo'layotgan muammoli jihatlarni ham yuzaga chiqardi. Hokim yordamchilarining yarmidan ko'pi kreditga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligi, 14 foizi malakali kadrlar yetishmasligi, yana 11 foizi yo'l infratuzilmasi qoniqsiz holatda ekanini ko'rsatib o'tgan. Qishloq mahallalarida suv ta'minoti va asosiy muhandislik infratuzilmasi hamon hal qiluvchi omil bo'lib qolmog'ga.

Inson kapitalini oshirish ham muhim masalalardan. Hokim yordamchilarining baholashicha, tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilganlarning moliyaviy savodxonlik, raqamli ko'nikmalar, xorijiy tillar va zamonaviy texnologiyalar bo'yicha bilimlari oshirish zarur. Shunday ekan, bilim va kompetensiyalarga parallel ravishda samoyga kiritmay turib faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash barqaror samara bermaydi. Shu nuqtayi nazardan, infratuzilma, imtiyozli moliyalashtirish, subsidiyalari va ta'limga bir vaqtning o'zida samoyga kiritishni nazarda tutuvchi davlat yondashuvi aniqlangan tarkibiy cheklovlarga mos keladi.

Umuman olganda, natijalar "mahalla yettiligi" islohotlarni amalga oshirishning samarali va keng qamrovli mexanizmgacha aylanganini tasdiqlaydi. Hokim yordamchilari orasida KPI tizimidan qoniqishning yuqori ko'rsatkichlari islohotlarning keyingi bosqichi, shuningdek, manzillilik va loyihaviy boshqaruvni kuchaytirish uchun mustahkam zamin yaratmog'ga.

Boshqaruv mantig'idagi o'zgarish

Ijtimoiy siyosat va kambag'allikni qisqartirish asosida mahallabay tizimi va tarixan shakllanib kelgan mahalla instituti nisbatan qisqa muddatda barqaror natijalarni namoyish etdi.

So'nggi to'qqiz yilda aholining xarid qobiliyati 2 baravar oshdi, 8,5 milliondan ziyod kishi kambag'allikdan chiqarildi, ishsizlik darajasi esa 2 baravar qisqardi. Natijada joylarda boshqaruvning yanada murakkab va aniq vositalariga o'tish uchun mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy poydevor yaratildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, 2026-yil oxirigacha kambag'allikni 2 baravar qisqartirish bo'yicha qo'yilgan maqsadga 2025-yildayoq erishildi. Bu siyosatdagi muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Endi e'tibor aniq mahallalar va uy xo'jaliklarida barqaror o'zgarishlarni mustahkamlashga qaratilmog'ga. Ijtimoiy-iqtisodiy samaralarning sifati va uzoq muddatli ta'siri asosiy ustuvorlikka aylanoqda.

Shu nuqtayi nazardan, 2026-yil islohotlarning sifat jihatidan yangi bosqichini ochmog'ga. Kambag'allikni qisqartirish siyosatini ilk bor zaiflikning mahalliy sabablariga aniq yondashish tizimi sifatida namoyon bo'lmog'ga. Qarorlarni baholash har bir mahalla miqyosida aholi bandligi, daromadi va asosiy infratuzilmadan foydalanishdagi real o'zgarishlarga asoslanadi. Boshqaruv mantig'idagi bunday o'zgarish jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi va islohotlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samarasini shakllantiradi.

Birgina o'tgan yili mahallalarda "yettilik" tizimi orqali har bir xonadon va insonning muammosi izchil o'rganilib, manzilli yondashuv asosida yechim topildi. Natijada 5 million fuqaro daromadli bo'ldi, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga pasaydi. Bu, o'z o'rinda, aholining mehnat qilish huquqi, ijtimoiy himoyasi va iqtisodiy farovonligi ta'minlanishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, kambag'allik darajasining 8,9 foizdan 5,8 foizga tushirilishi aholining turmushi sifati, ijtimoiy barqarorlik va jamiyatdagi teng imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan islohotlarning amaliy va samarali natijasi bo'ldi.

Bundan tashqari, o'tgan yili hayot sifati va infratuzilma bilan bog'liq muammolarni hal etish borasida ham aniq ishlar qilindi. Jumladan, 188 mahalladagi 715 ming kishi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suv yetkazildi, 2 million 300 mingga yaqin fuqaroning suv ta'minoti sezilarli darajada yaxshilandi. Eng muhimi, og'ir va qiyin sharoitdagi 867 mahallada joylashgan 470 ming xonadonga tomorqa sug'orish uchun ilk bor suv yetib bordi. Bu ham inson hayotidagi real o'zgarish, farovonlikning yaqqol namunasidir.

Prezidentimiz Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida "Mahalla va yaxshi qo'shniqlik o'zaro uyg'un qadriyatlaridir. Ular jamiyatda insoniy va ijtimoiy kapitalni yanada boyitishga beqiyos hissa qo'shadi", deb ta'kidlagani mahallaning jamiyat yuksalishida qay darajada teran va hayotiy qadriyat ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

Shubhasiz, mahalla ko'p ming yillik tarixga ega



milliy davlatchiligimiz, sinovlardan mardonavor o'tgan xalqimizning o'ziga xos an'ana va qadriyatlar, dardu tashvishlari, orzu-umidlari o'zida aks ettirgan sharqona demokratiya maktabi desak bo'ldi.

Mahallaning kuchi odamlarga yaqinligidadir. Buni ijtimoiy so'rovlar ham tasdiqlaydi: ularda ishtirok etganlarning 90 foizdan ko'prog'i o'zini mahalla jamoasining ajralmas bir qismi deb bilishini aytgan. Chunki mahallaga muammosi bilan murojaat qilgan har qanday inson u yerda faqat rasmiy yordam emas, balki muammosini eshitadigan, dardu tashvishlarini o'zini deb qabul qiladigan jamoaning qo'llab-quvvatlovini his qiladi. Shu ma'noda, o'zini o'zi boshqarishning noyob tizimi bo'lgan mahalla odamiylik muhiti qaror topgan maskan hamdir.

U fuqarolik jamiyati instituti sifatida davlat, jamiyat va fuqaroni birlashtiradigan, jamoatchilik nazoratining asosiy bo'g'inidir. Xalqimizning tafakkuri va qo'llab-quvvatlovi bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mahalla institutining maqomi aniq-tiniq belgilanib, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishlari mustahkamlandi.

Murojaatnomada ham "islohotlar natijasi har bir inson hayotida namoyon bo'lishi kerak" degan xalqchil g'oya asosida 6 ta strategik ustuvor yo'nalish ilgari surildi.

Jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilingan joriy yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasisga ko'ra, "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida amalga oshiriladigan islohotlar inson hayotida sezilarli o'zgarishlarni ta'minlashga qaratilgan. Mazkur ustuvor yo'nalishlar mahallaning islohotlar markaziga aylantilishga qaratilgan "yo'l xaritasi"dir.

2026-yildan boshlab mahallani rivojlantirishda kompleks yondashuv joriy etiladi. Bu endi har bir mahalladagi muammolar butunlay va uyg'un tarzda, barcha soha qamrab olingan holda hal qilinadi deganidir.



Ixtiyor BEKOV,
yuridik fanlar doktori,
professor

Jumladan, mahallalarda 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihasi amalga oshirilib, qo'shimcha 100 mingta yangi ish o'rni ochilishi maqsad qilinmog'ga. Chunki mahallasida ish o'rni bo'lsa, aholi ish izlab boshqa joylarda sarson bo'lmaydi, farzandlaridan uzoqlashmaydi, oilasi bag'rda tinch va barqaror hayot kechirish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa insonning yashash sharoiti bilan birga ruhiy xotirjamligi va kelajakka ishonchini ham mustahkamlaydi.

Kambag'allikdan xoli 3500 ta mahallaning paydo bo'lishi jamiyatni yuksaltirish va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki kambag'allikdan xoli mahalla nafaqat iqtisodiy barqaror, balki inson o'zini jamiyatning faol va muhim a'zosi sifatida his etadigan ma'rifiy muhitdir. Bunday hududda odam kundalik ehtiyojlari bilan ovora bo'lmaydi, aksincha, farzandining kelajagi, mahallasining rivoji haqida o'ylaydi. Unda inson nafaqat o'zi, balki yashayotgan joyi, qo'shnisi, jamoasi uchun mas'uliyat hissi bilan harakat qiladi. Bu jamiyatdagi o'zgarishlarga uyg'unlashish, davlat islohotlarining bir qismiga aylanish demakdir. Shu bois, inson o'zini nafaqat xonadon, balki mahalla va Vatan taqdiriga daxldor deb his etadi. Ana shu tuyg'u mahallani jamiyatdagi ijtimoiy birdamlik va milliy hamjihatlikning tabiiy manbaiga aylantiradi.

Mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida 20 trillion so'm yo'naltirilishi rejalashtirilmog'ga. Ushbu mablag' hisobidan yo'llar ta'mirlanadi, ichimlik suv va elektr ta'minoti yaxshilanadi, bog'chalar, madaniyat maskanlari va jamoat infratuzilmasini barpo etiladi. Bu esa odamlarning kundalik hayotini yengillashtirib, ertangi kunga ishonchini mustahkamlaydi.

Ekologik muammolarning oldini olish va aholi hayotiga ta'sirini yumshatish maqsadida mahallalarda yashil bog'lar va jamoat parklarini barpo etish muhim vazifalardan biriga aylanoqda. Shu maqsadga deputatlarining vakolatlarini kengaytirilib, ular aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib, mahallada bevosita ekologik muhitni yaxshilash bo'yicha tashabbuslar ko'tarishi va amalga oshirishi mumkin. Bu esa mahallalarda nafaqat yashil hududlar ko'payishi, balki aholi salomatligi, dam olish madaniyati va ekologik ongining yuksalishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mahalladagi muammolarni o'z vaqtida va samarali hal qilish uchun barcha davlat organlari mas'ul etib belgilanoqda, ijro jarayoni esa 7/24 rejimida onlayn kuzatilishi ta'minlanadi. Bu yangicha yondashuv fuqarolarning har bir murojaati e'tiborsiz qolmasligi, har bir muammo mas'ul tashkilot tomonidan aniq javobgarlik asosida hal etilishiga zamin yaratadi. Shu orqali davlat idoralari va aholi o'rtaida ishonch mustahkamlandi, "inson — jamiyat — davlat" tamoyili amalda ta'minlandi.

Mahallaga nisbatan ko'pincha "davlat va xalq o'rtasidagi ko'priq" deb ta'rif beriladi. Lekin buni chuqurroq mushohada qilsak, mahalla o'tmish va kelajakni bog'lovchi ma'naviy va ijtimoiy ko'priq hamdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da ilgari surilayotgan ustuvor vazifalar mahalla institutini mustahkamlash, uni islohotlar markaziga aylantirish, odamlar manfaatini hayotning har bir jabhasida ta'minlashga qaratilgan. Infratuzilmani yaxshilash, yangi ish o'rnlari ochish, kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash kabi maqsadlar mahallada real natijalar berishi yangi O'zbekiston taraqqiyotini mahalladan boshlash g'oyasini amalda tasdiqlaydi. Chunki islohot inson uchun bo'lsa, u avvalo, inson yashayotgan mahallada namoyon bo'lishi shart. Demak, mahalla butun jamiyat yuksalishining boshlang'ich nuqtasidir.

2026-yil 11-fevral, 28-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Dolzarb mavzu

Sharif QOBILOV,
IIV akademiyasi professori,
iste'fodagi polkovnikYASHIRIN
IQTISODIYOT

MAMLAKAT TARAQQIYOTIGA TAHDID

Boshlanishi 1-betda

Yashirin iqtisodiyot o'nlab yillar davomida mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida baravj rivojlandi. Qat'iy chegara va savdo to'siqlari, iqtisodiy turg'unlik, erkin valyuta konvertatsiyasi yo'qligi, tadbirkorlarga turli bosimlar buning asosiy sabablardir. Qolaversa, boshqaruvdagi byurokratiya va korrupsiya, monopoliya va yopiq sxemalar, bozor iqtisodiyoti rivojlanmagani, pul-kredit va soliq-byudjet siyosatida ochiqlik yo'qligi, ishsizlik kuchayishi, majburiy mehnat, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi hamda ta'lim sifati pastligi ham yashirin iqtisodiyot gullab-yashnashiga zamin yaratadi.

Aytish kerakki, yuqoridagilarning barchasi yillar davomida milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar rivojiga katta zarar yetkazdi.

Imtiyozlar —
eng yaxshi usul

“Yashirin iqtisodiyot” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning ko‘plab sinonimlari mavjud. Norasmiy iqtisodiyot, noqonuniy iqtisodiyot, nomuntazam iqtisodiyot, kulrang iqtisodiyot, qora iqtisodiyot, parallel iqtisodiyot, jinoiy iqtisodiyot, ikkinchi iqtisodiyot, oq yoqa iqtisodiyoti, uy va jamiyat iqtisodiyoti shular jumlasidandir.

Bugungi taraqqiyotimiz bosqichida jamiyatning muayyan bo‘g‘inlarida yashirin iqtisodiyot vatanimiz rivojiga chang solayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Yashirin iqtisodiyot Soliq kodeksida qayd etilgan fiskal qoidalarni chetlab o'tuvchi yoki ulardan bo'yin tovlovchi iqtisodiy faoliyatdan tashkil topadi.

Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda, birinchi navbatda, iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun unga tahdid soluvchi kuchlarni bartaraf etish talab qilinadi. Asosiy iqtisodiy xavfsizlikka bo'layotgan tahdidlar orasida ko'proq ahamiyat egallagan iqtisodiy munosabatlarning jinoylashuvi, ya'ni jinoiy tizimning davlat iqtisodiy siyosatini o'z manfaatlariga bo'ysundirish tendensiyasidir. Aynan shuning uchun yashirin iqtisodiyotni aniqlash, shakllanishining oldini olish va ulushini pasaytirish hozirgi zamon iqtisodiy siyosatining o'z dolzarb muammolaridan biri bo'lib, uni zudlik bilan hal etish uchun kompleks chora-tadbirlarni kechiktirmay amalga oshirish lozim.

Yashirin iqtisodiyotning kengayishi aholining davlatga ishonchini yo'qotadi. Davlatning iqtisodiy islohotlariga to'sqinlik qiladi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularga turli xil shaklda imtiyozlar berish yashirin iqtisodiyot miqyosini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashirin iqtisodiyot, o'z navbatida, korrupsiyani vujudga keltiradi. Korrupsiya esa yashirin iqtisodiyot rivoji uchun barcha imkoniyatlarni yaratadi. Ya'ni yashirin iqtisodiyot davlat hokimiyati va boshqaruvining barcha tizimi sezilarli darajada korrupsiyalashgan shart-sharoitda rivojlansa, ikkinchi tomondan, yashirin iqtisodiyot siyosat va iqtisodiyotning o'zaro xotirjam holatda mavjud bo'lishini ta'minlovchi sohalar bilan korrupsiyalı munosabatlarni shakllantiradi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash bilan uyg'unlashgan holda bo'lishi kerak.

Boylik va qudrat ramzi

Mamlakatni misli ko'rimagan tub o'zgarishlar yo'lidani qat'iyat bilan olib borgan, siyosiy va iqtisodiy modernizatsiyaning jadal jarayonini boshlagan Shavkat Mirziyoyevning Prezidentlikka kelishi bilan O'zbekiston taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichga boshlandi. Chunki zamon eskicha yashash va ishlashni ko'tara olmasdi. O'zgarish va yangilanishlar zamon talabi edi.

2016-yili mamlakatimizda siyosiy o'zgarishlar ro'y berdi, Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi platforma bilan hokimiyatga keldi. 2017-yildan keyin jamiyat hayotida ham, davlatchiligimizda ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Davlatimiz rahbari siyosiy tizimni isloh qilishda o'zining boy hayotiy va boshqaruv sohasidagi yillar davomida to'plagan tajribasiga tayandi. Sababi zamon eskicha yashash va ishlashni ko'tara olmasdi.

Eslaylik, 2017-yil sentabrda so'm bir kunda 1,5 barobar qadrsizlandi. Bu voqelikni o'sha paytda ko'pchilik tanqid qildi. Ammo bu qaror o'ta og'riqli bo'lib, uni qabul qilish va ijro etish mas'uliyatini Prezident o'z zimmasiga olgandi. Bu qaror iqtisodiy inqilob bilan barobar edi. O'zbekiston 2017-yilning 5-sentabridan milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to'liq o'tdi. Bu borada aholi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni yumshatish bo'yicha barcha zarur choralar ko'rildi. O'shandan so'ng valyuta bozori erkinlashdi, eksport-import munosabatlari sog'lomlashdi, xorijiy sarmoyadorlar uchun valyutada daromadni chiqarish kafolati qonuniylashtirildi.

Bugun esa erkin valyuta siyosati iqtisodiy suverenitetning to'laqonli kalitiga aylanib ulgurd. Buni nufuzli xalqaro moliya institutlari — Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi tashkilotlar ham e'tirof etdi. Jumladan, o'sha davrda Jahon banki vitse-prezidenti Siril Myullerning: “Bu juda kuchli, muayyan ravishda tarixiy hujjat. U O'zbekistonda yangi davr boshlanganini ifodalaydi va unda mamlakat taraqqiyotida yangi dinamika belgilovchi yangicha dunyoqarash va yangilangan yondashuvlar bayon etilgan”, degan haqqoniy bahosi xotiramizda jonlanadi.

Xullas, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan tizim asorati ketmagan davlatni xalq davlatiga aylantirish yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining bosh yo'nalishi edi.

2017-yil 3-yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun qabul qilinishi davlat apparati va fuqarolik jamiyati institutlarining ushbu xavfli illat bilan kurashdagi kuch va imkoniyatlarini birlashtirishga zamin hozirladi.

Haqiqatan, O'zbekiston iqtisodiyoti erkinlashtirilmoqda: kichik biznes sohiblariga nazorat yuki keskin pasaytirilmoqda, ba'zi inspeksion tashkilotlardagi byurokratik ovoragarchiliklarga barham berilmoqda, bank, soliq va bojxona tizimlarimiz yanada liberalashtirilmoqda, xususiy biznesni hukumatdan himoyalovchi qonunlar qayta isloh qilinmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) O'zbekistonga qaytdi. Ular shaffoflikni oshirish va mahalliy statistikani muvofiqlashtirish borasida hukumat bilan ishlamoqda. Yangilanayotgan O'zbekiston barcha sohalarida ochiqlik, shaffof va halol munosabatlar yo'lini tandli.

Prezidentimizning Oliy Majlisga 2018-yildagi Murojaatnomasidagi fikri xotiramizda jonlanadi: “Afsuski, yalpi ichki mahsulotda yashirin iqtisodiyotning ulushi katta bo'lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Soliq yukini kamaytirish, biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish yashirin iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralarini nazarda tutadigan alohida dastur ishlab chiqishimiz zarur”. 2017-yilda yalpi ichki mahsulotda yashirin iqtisodiyotning ulushi O'zbekistonda 50 foizni tashkil etadi va dunyoning baholanish o'tkazilgan 159 mamlakati orasida 152-o'rinda edi. XVf tomonidan quyi chegara 32 foiz etib belgilangan.

Bu ko'rsatkich O'zbekistonning obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz edi.

Ayniqsa, global jahon iqtisodiyotida hali beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolar sharoitida ushbu masalalarning dolzarbligi yanada ortdi. Bunday sharoitda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, unga bo'ladigan turli tahdidlarni, ayniqsa, yashirin iqtisodiyot va halokatli fenomen korrupsiyani oldini olish masalasi yuzaga kelgan ediki, 2017-yil yakuniga kelib, davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi boisi, muhim chora-tadbirlar belgilandi.

2016-yilgi raqamlarga murojaat qilsak: yalpi ichki mahsulot 66 milliard dollarini tashkil qilgan. 2022-yilgi ko'rsatkichlar bo'yicha YIM (80 milliard dollar) aholi jon boshiga 2200 dollarini tashkil qildi. 2023-yilda YIM 91 milliard dollar, 2024-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 110 milliard dollarini tashkil etdi.

Mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy sa'y-harakatlar natijasida keyingi to'qqiz yilda



yalpi ichki mahsulotimiz 2,5 karra oshib, o'tgan 2025-yilni 145 milliard dollarga, eksport hajmi 43 milliard dollarga yetdi. 2026-yil yakuni bilan yalpi ichki mahsulotimiz 167 milliard dollarga yetishi mo'ljallanmoqda.

Yalpi ichki mahsulotning o'sishi kuch, qudrat, farovonlik degani. Zero, yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi boylik va qudrat ramzidir.

Korrupsiya va inflyatsiya

Fanda yashirin iqtisodiyot va korrupsiya uyushgan jinoyat olami bilan chirmashib ketishi isbotlangan. Shu o'rinda joriy yilning 27-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida “Eng yomoni, chet davlatlarda ham o'zimizning fuqarolari uyushgan guruhlar tuzib, yurtimizdan borganlarga nisbatan tovlamachilik, zo'ravonlik, tadbirkorligiga xavf solish bilan shug'ullanyapti. O'zbeklarning chet eldagi ommaviy mushlatshuvlari yurtimiz obro'siga putur yetkazayapti”, deya ta'kidladi.

O'tgan yilning o'zida chet elda og'ir ahvolda tushgan 3700 fuqaromiz yurtga qaytarildi. 192

fuqaro odam savdosi qurboniga aylandi. Chet elga borib olib, uyushgan jinoiy guruhlar tashkil qilgan, u yerda o'zimizning fuqarolarni ham talayotgan shaxslar faoliyatiga chek qo'yishdagi sustkashliklar tanqid qilindi.

Bundan tashqari, ilgari faqat “ko'cha” deb ko'rigan uyushgan jinoyatchilik bugun biznes niqobi ostida daromadli sohalarga kirib boryapti. Ayniqsa, jinoiy to'dalar faoliyati ko'p qavatli uylar va avtomashinalar oldi-sotdisi, moliyaviy piramidalar tashkil qilish, haj va umra ziyoratiga yuborishda ancha ko'paygan. Toshkent shahrida xonadon sotish masalasida 3 mingdan ziyod fuqaroga 1,3 trillion so'm zarar yetkazilgan. Mas'ullar aholining firibgarlar qopqoniga tushib qolmasligi uchun huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha ishlamayotgani ko'rsatib o'tildi.

Tahilllar ko'rsatadiki, davlat boshqaruvi organlarida korrupsiya sodir etilishi natijasida iqtisodiyot sohasiga eng katta zarar yetkaziladi. Xalqaro ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra,

dunyo mamlakatlarida korrupsiya natijasida tovar va xizmatlarning bahosi har yili o'rtacha 5-15 foiz oshadi.

Xorijlik ekspertlar va mahalliy hamjamiyatda bugun butun MDH makonida eng ulug'vor islohotlar O'zbekistonda kechayotganini qat'iy e'tirof etmoqda. O'tgan 9 yil davomida O'zbekistonda keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshdiki, ularni shunchaki o'zgarishlar emas, balki bu adolatni tiklashga qaratilgan, odamlarning haq-huquqlarini tan olgan ma'rifatlari, huquqiy, demokratik davlat barpo etish yo'lidagi yangilanishlardir. Bu rag'bat va adolat ruhi singib borayotgan jamiyat barpo etilayotganidir. Bu “hech kim qonundan yuqori emas” tamoyili amalda to'liq ta'minlanayotganida ko'rinmoqda.

2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda inson sha'ni, mulk daxlsizligi va adolati jazo tamoyillari mustahkamlandi. Mansabdor shaxslarning noqonuniy harakatlariga javobgarlik qat'iyilashirildi.

Yillar mobaynida amalda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq huquqni muhofaza qilish va nazorat qilish organlarining kuchlari va vositalari

yetarli darajada ishlatilmagani ham sir emas.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida “yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, Milliy statistika qo'mitasi tarkibida Yashirin iqtisodiyotni statistik baholashni muvofiqlashtirish bo'limi tashkil etildi.

Prezidentimizning 2024-yil 16-yanvardagi “Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida bu borada davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Jumladan, yashirin iqtisodiyot ko'lamini keskin qisqartirish orqali mamlakatda sog'lom raqobat va xususiy biznesni rivojlantirish, yashirin iqtisodiyot shakllanishining turli sxemalari, xufiyona ishlab chiqarish va noqonuniy moliyaviy oqimlarga barham berish orqali iqtisodiy barqarorlikni va aholi farovonligini ta'minlash asosiy maqsad qilingan.

Shuningdek, keng jamoatchilikda yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish ham hujjatda belgilab qo'yilgan. Asosiy maqsad qonunga itoatkor tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni repressiv yo'l bilan emas, balki ularni rag'batlantirish mexanizmlari va amaliy ko'mak berish orqali ko'lamini kamaytirish, jazolov choralarini kuchaytirishdan voz kechgan holda insofli tadbirkorni himoya qilish, ularga haqiqiy ko'makchi bo'lish hamda biznes rivojiga to'siq bo'lvuchi korrupsion omillarga barham berish hisoblanadi.

Joriy yilning 27-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soha mutasaddilari soliq siyosatining ijtimoiy va iqtisodiy muammolari yechishdagi roli beqiyosligi, jamiyat va davlatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy yo'naltiruvchi kuch, yagona iqtisodiy maydonni tashkil etishga imkon yaratadigan kuchli iqtisodiy dastak, mamlakatning milliy, iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashini bilatirib, soliq qonunchiligini buzishi o'taketgan xudbinlikdir.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan katta mablag' talab qilyotgan ijtimoiy dasturlar budjetdan moliyalashtirilayotgani sir emas. Ko'pgina davlatlarda budjetning asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Masalan, Fransiya davlat budjetining 95 foizi, AQSHda 90 foizi, Germaniyada 80 foizi, Rossiyada 93 foizini soliqlar tashkil etadi. Soliq qonunchiligining buzilishi budjetga tushadigan soliq va boshqa tushumlar kamayishiga, misqolab shakllanayotgan davlat budjeti majburiyatlarini bajarilmay qolishiga olib keldi. Oxir-oqibatda hukumatning bozor iqtisodiyotini boshqarishdagi moliyaviy tizimi zaiflashuviga, jamiyatda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali yashirin sektorni legallashtirish masalasi global muammo sifatida

o'rganilmoqda. Jumladan, yashirin iqtisodiyotni legallashtirish mexanizmini takomillashtirishga kompleks yondashish, elektron hukumat orqali davlat institutlari samaradorligini oshirish, norasmiy subyektlar faoliyatini byurokratik omillarni bartaraf etish orqali “soya”dan chiqarish, kiberxavfsizlikni kuchaytirish asosida noqonuniy oshor hisobraqamlarni nazoratga olish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining tarmoq va sohalariga raqamlashtirishni keng joriy qilish orqali korrupsiyaga qarshi kurashish, yashirin iqtisodiyotni legallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Soliq qonunchiligi buzilishi mamlakatdagi ijtimoiy tadbirlarning me'yorda ishlashiga xavf soladi. Budjet kamomadini keltirib chiqaradi. Natijada egri soliqlar miqdori ko'payadi. Mamlakatning ijtimoiy xavfsizligiga tahdid solinadi. Iqtisodiyotning notekis ishlashiga sabab bo'ldi.

Prezidentimiz videoselektor yig'ilishida “Bilib qo'yinglar, davlatning har bir so'mi bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatiladi. Javobgarlik muqarrar, jazo qattiq bo'ladi”, dedi.

Yaqinda Prezident Administratsiyasi va davlat idoralariida kompleynas va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi yo'lga qo'yildi. Yig'ilishda mazkur tuzilma tomonidan qisqa muddatda budjetga tushum, talon-toroj, moliyaviy kamchiliklar bo'yicha 53 trillion so'm va tashqi savdo operatsiyada 8 milliard dollardan ortiq qarzdorlik aniqlangan o'ta ayancli holat ekani qayd etildi. Korrupsiyaviy sxemalar bo'yicha 4,2 trillion so'm zarar aniqlanib, 1,3 trillion so'mi undirildi, 55 nafar shaxs qamoqqa olingani nufuzli tashkilotlar faoliyatiga soya soladi va keng jamoatchilik oldida ishonchini yo'qotadi.

So'nggi yillarda davlat boshqaruvi organlarida ochiqlik va shaffoflik siyosati yuritilayotgani o'z natijasini bermokda. Lekin bu jarayon huquq-tartibot idoralari ishiga sekin kirib kelayotgani, ularning faoliyati tashqaridan xolis o'rganilmayotgani Prezidentimiz tomonidan qayd etildi.

Xorij tajribasi idora va tashkilotlarning yopiq holatda ishlashi ularning o'ziga ham, jamoatchilikka ham foyda keltirmasligi, sohada o'zgarish, rivojlanish bo'lmisligini isbotlagan.

Biz yangi O'zbekistonni barpo etyapmiz. Bu mamlakatimizda rahbar kadrlarning yangi avlodini, yangi kadrlar korpusini yaratishni talab qilmoqda. Bu degani, hozirgi sharoitda kadrlar bilan ishlash, har tomonlama yetuk, vatanparvarlik, professionallik, adolat, halollik va xolislikda ibrat bo'ladigan boshqaruvchilar kerak. Demak, ilg'or boshqaruv usullarini egallagan kadrlar xazarasini shakllantirishda sharoqna donishmandlik, dunyoviy tafakkur, ma'naviy-xalqioy fazilatlar suv va havodek zarur.

Muhimi, kadrlarda korrupsiyaga nafrat tuyg'usi hamda ushbu illatga murosasiz kurashish borasida muhim sanalgan kuchli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ko'zlangan samarani kafolatlaydi. Bu esa mislsiz moddiy va ma'naviy zararlarining oldini oladi.

YOSHLARNI RUHLANTIRAYOTGAN LOYIHA

2023/2024-o‘quv yilidan e‘tiboran xorijiy tillar o‘qitilishini takomillashtirish maqsadida maktablarga til egalari bo‘lgan chet ellik mutaxassislar jalb etila boshladi. Hozir ular soni 1500 dan ortiq. 2030-yilga borib, har yili 1000 nafar xorijiy til egasini maktablarga jalb etish ko‘zda tutilmoqda. Zero, bu loyiha o‘zini oqlayotganiga tashkilotchilar ham, jarayon ishtirokchilari ham ishonch hosil qilyapti.

2021-yilda xorijiy tilni bilish darajasi bo‘yicha sertifikatga ega maktab o‘quvchilari soni bor-yo‘g‘i 11 mingdan ziyod edi. Hozir bu ko‘rsatkich 53 mingga yetdi. Yaqin bir-ikki yilda bu natija sezilarli o‘rtishi aniq. Hozircha poytaxt maktablarida yo‘lga qo‘yilgan, megaloyiha darajasiga chiqqan “Kelajak uchun xorijiy til” loyihasi bu jarayonda muhim omil bo‘ladi. U tufayli o‘quvchi yoshlarga katta imkoniyat ochilyapti.

Chet ellik mutaxassislar qanday fikrda?

Loyihada ishtirok etayotgan ko‘plab xorijlik o‘qituvchilar O‘zbekistonga bog‘lanib qolgani, mahalliy o‘qituvchilarning xushmuomalaligi, bag‘rikengligi, o‘quvchilarning til o‘rganishga qiziqishi kattaligini aytmoqda. Ular o‘zbek yoshlari chin ma’noda baxtli avlod ekani, farzandlarimiz kelajagi uchun barcha shart-sharoit yaratilganini e‘tirof etyapti.

— O‘zbekiston strategikchi kelajakni oldindan ko‘ra oladigan, strategik fikrlaydigan lider, — deydi Yunusobod tumanidagi 9-maktabda ingliz tilidan dars berayotgan britaniyalik mutaxassis Ronald Vols. — Buni Prezidentingizning yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan e‘tibori, xorijiy tillar va kasb-hunar o‘rgatishga doir tashabbuslarida yaqqol ko‘rish mumkin. Bu siyosat dunyo amaliyotida samaradorligini isbotlagan. Xususan, “Kelajak uchun xorijiy til” — yoshlarni rag‘batlantirishga qaratilgan juda muhim va dolzarb loyiha. Ingliz tili bugun biznes, ta‘lim va kasbiy sohalarda juda muhim muloqot vositasi. Shuning uchun o‘quvchilarning maktabni chuqur bilim va o‘ziga qat‘iy ishonch



bilan tamomlashi alohida ahamiyatga ega. Yoshlar buni tushunib yetyapti va ingliz tilida erkin gapirish, yozish, tinglab tushunish va muloqot qilishga intilmoqda.

Buyuk Britaniyadan kelgan yana bir tajribali mutaxassis Burns Isabel yangi o‘quv yilidan poytaxtimizdagi 96-maktabga xorijiy til o‘qituvchisi sifatida jalb etilgan.

— O‘zbekistonda ta‘lim tizimi juda ham keng qamrovli, — deydi u. — Hamkorlikda ishlashning o‘qitish sifatini oshirishdagi ahamiyati katta. Bu o‘qituvchilar va o‘quvchilarga muloqot, fikr almashish va birgalikda o‘rganish imkonini beradi. Mazkur maktabda ish boshlaganimga ko‘p bo‘lmasa-da, mahalliy hamkasblarim va o‘quvchilarim muhiaga moslashishimga yordam beryapti. Ularning qo‘llab-quvvatlovi va hamkorligi tufayli ishga tez moslashdim hamda faoliyatimni takomillashtirib boryapman. Onlayn resurslar va zamonaviy ta‘lim platformalaridan foydalanish darslarimni yanada samarali tashkil etish va o‘quvchilarning ehtiyojiga moslashishga yordam berdi. Ta‘lim maskani binosi yangi va juda zamonaviy. Atrof-muhit, sinfxonalar va sharoitlar a‘lo darajada. Kelgusi yillarda ham shu maktabda ishlamoqchiman. Ta‘lim sifatini yanada oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga hissamni qo‘shmoqchiman.

Loyiha doirasida Qoraqalpog‘istonga 100 ga yaqin chet tili o‘qituvchisini jalb qilish rejalashtirilgan. Bugun ularning 50 foizdan ko‘pi

shahar va tumanlardagi maktablarda ish boshladi. Chet ellik pedagoglarning shahar hamda tuman markazlari, shuningdek, sayyohlik manzillarida joylashgan maktablarda ta‘lim berishi ko‘zda tutilgan. Shunga ko‘ra, Mo‘ynoqqa yil boshida Hindistondan ikki xorijiy til o‘qituvchisi keldi. Ulardan biri Nelson Nibin tumandagi 2-maktabda yoshlarga ta‘lim bermoqda.

— O‘zbekistonga 2023-yilda kelib, faoliyatimni boshlaganman, — deydi Nelson Nibin. — Ikki yil Buxoroning Olot tumanidagi maktabda dars berdim. O‘quvchilarning IELTS sertifikatini olishiga ko‘maklashdim. Sertifikat olishi uchun o‘qituvchilarni ham imtihonga tayyorladim. Tajriba almashib, hamkorlikda ishladik. U yerdagi shartnomam yakunlangach, Mo‘ynoqda ish boshladim. Yangi ish joyimdan ham juda mamnunman. Chunki o‘quvchilar ingliz tiliga astoydil qiziqqan. Hamkasblarim ham yangi jamoaga ko‘nikib ketishimga yordam beryapti. Eng qizig‘i, qoraqalpoq tilini o‘rgana boshladim.

Maktab direktori Salamat Nurjanov hindistonlik pedagogning mahorati, tajribasi maktab o‘quvchilarining chet tilini o‘zlashtirishi, shuningdek, xalqaro IELTS sertifikatlarini olishida muhim o‘rin tutishini ta‘kidladi.

Hamza Xasni Mo‘ynoqdagi 4-maktabga chet tili o‘qituvchisi bo‘lib keldi. Ko‘p yillik tajribali pedagog qator xalqaro sertifikatlarga ega.

— Hindistonda 15 yildan buyon ingliz tili va adabiyotidan dars beraman. Faoliyatim davomida



Kelajak poydevori

“KELAJAK UCHUN XORIJIY TIL” — yoshlarni rag‘batlantirishga qaratilgan juda muhim va dolzarb loyiha. Ingliz tili bugun biznes, ta‘lim va kasbiy sohalarda juda muhim muloqot vositasi. Shuning uchun o‘quvchilarning maktabni chuqur bilim va o‘ziga qat‘iy ishonch bilan tamomlashi alohida ahamiyatga ega..



dunyo bo‘ylab 2 millionga yaqin o‘quvchini o‘flayn va onlayn o‘qitdim. Magistr diplomini va xalqaro sertifikatga egaman. O‘zbekistonga birinchi marta keldim. Ushbu mamlakatning an‘anlari, madaniyatini yaxshi ko‘rib, shu yerni tanladim.

Yoshlar global maydonda raqobatbardosh bo‘lishi kerak

Xorijiy til egalari O‘zbekiston ta‘lim tizimiga jalb etilishi bizga nima beradi degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Bunga javoban aytish mumkinki, birinchi navbatda, ta‘lim tizimimizni xalqaro standartlarga integratsiya qilish imkonini paydo bo‘ladi. O‘quvchilarning chet tillarni o‘rganishga qiziqishi tabiiy o‘rati. Mahalliy o‘qituvchilar va xorijlik mutaxassislar tajriba almashadi.

2025-yil yakunida poytaxtimizdagi umumta‘lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari uchun ingliz tilini bilish darajasini aniqlash

bo‘yicha maxsus test sinovlari tashkil etildi. Test jarayonida o‘quvchilarning grammatika, tinglab tushunish hamda o‘qib tushunish ko‘nikmalari baholandi. O‘sha sinov natijalariga ko‘ra, C1 va undan yuqori daraja qayd etgan o‘quvchilar Toshkent shahridagi Prezident maktabida tashkil etilgan maxsus kursda o‘qiy boshladi. Dastur Prezident maktablarida ishlab chiqilgan bo‘lib, iqtidorli o‘quvchilarda global dunyoqarash, yetakchilik salohiyati, tanqidiy fikrlash, barqaror rivojlanish maqsadlariga asoslangan zamonaviy

kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Shundan ham bilish mumkinki, “Kelajak uchun xorijiy til” loyihasi bilimli, ochiq fikrli va global maydonda raqobatbardosh yoshlar avlodini tarbiyalash yo‘lidagi muhim qadamdir. Ilk bor Toshkent shahrida tajriba tariqasida yo‘lga qo‘yilgan mazkur loyihada poytaxtdagi umumta‘lim maktablarining qariyb 40 ming bitiruvchisini qamrab olish rejalashtirilgan.

Til o‘rgatish bo‘yicha ilgari surilayotgan tashabbusning yana bir muhim jihati shundaki, dars mahalliy pedagoglar bilan birga o‘tiladi. Ya‘ni ular hamkor o‘qituvchi sifatida bir-birining o‘mini to‘ldiradi. Buning foydali jihatlari juda ko‘p. Bir tomondan xorijlik mutaxassis bilimini ham o‘quvchiga, ham o‘qituvchiga ulashadi. Ikkinchi tomondan esa o‘qitish tizimi bilan yaqindan tanishib boradi. Tahlillarga ko‘ra, shu paytaga qadar o‘quvchilar IELTS imtihonining tinglab tushunish yoki o‘qib tushunish qismi bo‘yicha yuqori ball olar, ammo yozish va gapirish ko‘nikmasiga kelganda oqash sezilar, ballar pasayib ketar edi. Shu ma’noda, xorijlik mutaxassislar bilan til muhitini vujudga keltirish, ya‘ni oson muloqot qilish, tushunish, gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish juda muhim.

Munajat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



YANGI KENGASH NIMASI BILAN AHAMIYATLI?

Prezidentimizning 2025-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni Toshkent davlat yuridik universitetida professor-o‘qituvchilar rolini oshirish, qarorlar qabul qilishda kollegial yondashuvlarni kengaytirishga qaratilgan navbatdagi qadam sifatida ko‘rilmog‘da. Chunki ayni farmon asosida O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalari orasida ilk bor mazkur o‘quv yurtida Professorlar kengashi (Senate of Professors) tashkil etildi.



Farmon va ijro



Bu nima beradi? Avvalo, aytish kerakki, mazkur tashabbus oliy ta‘lim muassasasini boshqarishda akademik hamjamiyat ishtirokini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Vaholanki, an‘anaviy yondashuvda universitet boshqaruvi ko‘proq ma‘muriy mexanizmlar orqali amalga oshirilardi. Ammo bugungi oliy ta‘lim tizimi ta‘lim sifat, ilm-fan va akademik erkinlik bilan bog‘liq qarorlar qabul qilinayotganda professor-o‘qituvchilar qanchalik ishtirok etmoqda degan savolni yuzaga chiqarmoqda. Professorlar kengashi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda akademik hamjamiyat ishtirokini institutlashgan shaklda ta‘minlashga xizmat qiladi.

Mazkur kengashga qator muhim vakolatlar ham berildi. Xususan,

universitetning uzoq va o‘rta muddatli strategik rivojlanish dasturlarini aynan kengash tasdiqlaydi. Xalqaro e‘tirof etilgan reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashga qaratilgan maqsadli choralarni belgilaydi. Shuningdek, huquq sohasidagi dolzarb ilmiy tadqiqotlar va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, akademik halollik va tadqiqot etikasi standartlarini tasdiqlash ham uning vakolatlari sirasiga kiradi. Mazkur vakolatlar Professorlar kengashini shunchaki maslahat beruvchi organ emas, balki universitetning akademik siyosatini shakllantirishda muhim rol o‘ynovchi subyekti sifatida namoyon etadi.

Professorlar kengashini shakllantirish saylov asosida amalga oshirildi. Uning

a‘zolarini universitet kafedralari professor-o‘qituvchilari hamda tadqiqot markazlari ilmiy xodimlari o‘z vakillari orqali demokratik yo‘l bilan saylab oladi. Natijada akademik hamjamiyatning universitet boshqaruvidagi ishtiroki deklarativ emas, amaliy mazmun kasb etadi.

AQSH, Buyuk Britaniya hamda Yevropaning ko‘plab yetakchi oliyog‘hlarida shunday kengash yoki akademik senatlar oliy ta‘lim muassasasi boshqaruvi tizimidagi muhim institutsional bo‘g‘in hisoblanadi. Jumladan, Italiyaning Bolonya universitetida Universitet senati, AQSHdagi Vashington universiteti va Garvard universitetida Fakultet (Faculty) senatlari, Buyuk Britaniyadagi Oksford universitetida Akademik kengash (Congregation) faoliyat yuritadi.

Mazkur kollegial organlar o‘quv dargohining akademik siyosatini shakllantirish, ta‘lim standartlarini tasdiqlash, yangi ta‘lim dasturlarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek, akademik erkinlik va sifat kafolatlarini ta‘minlashda muhim vakolatlarga ega. Turli mamlakatlarda ushbu organlarning nomlanishi farq qilishi mumkin bo‘lsa-da, ularning vazifasi va funksional roli oliy ta‘lim muassasasida akademik hamjamiyat manfaatlarini ifodalovchi hamda qarorlar qabul qilishda muhim ta‘sir ko‘rsatuvchi institut mavqeiga ega.

Professorlar kengashi tashkil etilishi O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida boshqaruvning zamonaviy, ochiq va kollegial modelini joriy etish yo‘lidagi muhim qadamdir. Ushbu yangilik professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning universitet taraqqiyotidagi rolini kuchaytirib, akademik fikr va mas‘uliyatni boshqaruv jarayoniga faol jalb etishga xizmat qiladi.

Umid SOBIROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti tadqiqot markazi ilmiy xodimi



Oliy ta‘limdagi yangiliklar

Oliy ta‘lim tizimidagi islohotlar faqat ta‘lim mazmuni yoki qabul ko‘rsatkichlari bilan cheklanib qolmayapti. Talabaning ta‘limdan tashqari hayoti, ijtimoiy muhiti va yashash sharoiti ham bilim olish sifatiga bevosita ta‘sir etuvchi omil ekani bois, unga davlat siyosati darajasida katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu ma’noda, talabalar turar joylari bilan bog‘liq islohotlar oliy ta‘limni insonga yo‘naltirilgan tizimga aylantirishda muhim qadam bo‘ldi.



INFRATUZILMA ORQALI SIFAT TA‘MINLANADI

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi “Ayrim toifadagi talabalarining davlat oliy ta‘lim tashkilotlari talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlarini qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ana shunday ezigu maqsadga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Negaki bu orqali ayrim toifadagi talabalar ro‘yxatini shakllantirish, talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlarini qoplab berishni komissiya tomonidan ko‘rib chiqish hamda davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirish tartibi belgilandi.

— Ushbu imtiyozdan “Ijtimoiy reyestr”ga kiritilgan oilalarning kunduzgi ta‘lim shaklida tahsil olayotgan farzandlari foydalanishi mumkin, — deydi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bo‘lim boshlig‘i Nozim Ibragimov. — To‘lovlar talaba grant yoki kontrakt asosida o‘qishidan qat‘i nazar, amalga oshiriladi.

Qarorga ko‘ra, bunday yoshlar talabalar turar joyiga ustuvorlik asosida navbatsiz qabul qilinadi. Agar davlat yotoqxonasi bo‘lmasa, ular davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan turar joylarga joylashtirilishi mumkin. To‘lovlar har oyning 15-sanisiga qadar talabaning bank plastik kartasiga o‘tkazib beriladi.

Talabaning oilasi “Ijtimoiy reyestr”ga kiritilgani davlat oliy ta‘lim tashkilotining tegishli axborot tizimi orqali yuborgan elektron so‘roviga asosan “Elektron hukumat”

tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasidan olingan elektron ma‘lumotlar, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etiladigan ma‘lumotnoma asosida tasdiqlanadi.

Davlat oliy ta‘lim tashkilotlarining talabalar turar joyida yashaydiganlarga oylik to‘lovlar qonunchilik hujjatlariga muvofiq, davlat oliy ta‘lim tashkiloti hamda talaba tomonidan imzolangan shartnoma mavjud bo‘lgan taqdirda qoplab beriladi.

— Komissiya tomonidan talabgorlar ro‘yxati taqdim etilgan ariza va unga ilova qilingan hujjatlar asosida aniqlanadi, — deydi Nozim Ibragimov. — Ariza beruvchi o‘quv yili uchun talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlarini davlat byudjeti hisobidan qoplab berish yuzasidan o‘zlari ta‘lim oladigan oliy ta‘lim tashkilotining rektori (filial direktori) nomiga oyning 7-sanisiga qadar ariza bilan murojaat qiladi. Shu muddatdan keyin taqdim etilgan arizalar ushbu oy bo‘yicha yashash xarajatlarini qoplab berish uchun ko‘rib chiqilmaydi.

Ariza beruvchi mustaqil ravishda komissiyaga “Talabalarga shartnoma asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish axborot tizimi” (kontrakt.edu.uz) orqali ariza yuboradi. Ariza tegishli o‘quv yili uchun bir marta yuboriladi.

Endilikda chet tili birinchi ham bo‘lgan yo‘nalishlarga B1 daraja ham imtiyoz beradi.

Yuqoridagi hujjat bilan hukumatning ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Unga ko‘ra, fanlar majmuasida chet tili 1-fan sifatida belgilangan ta‘lim yo‘nalishlariga qabul xorijiy tilni bilish bo‘yicha kamida B1 darajadagi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikat asosida amalga oshiriladi.

— Fanlar majmuasida chet tili fani mavjud bo‘lgan ta‘lim yo‘nalishlariga qabulda B1 darajadagi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga ega abituriyentlarga ushbu fandan belgilangan maksimal baling 75 foizi miqdorida ball beriladi, — deydi Bilim va malakalarni baholash agentligi Chet tilini bilish va egallash darajasini baholash boshqarmasi boshlig‘i Oybek G‘aniyev. — B2 va undan yuqori darajadagi milliy yoki xalqaro tan olingan sertifikatga ega abituriyentlar ushbu fandan belgilangan maksimal ballni qo‘lga kiritadi. Bu esa talabaning kelajakdagi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ilgari mazkur yo‘nalishlarga qabul kamida B2 darajasidagi milliy yoki xalqaro sertifikat asosida amalga oshirilardi.

Amalga kiritilayotgan ushbu yangiliklar yoshlarimizga qo‘shimcha qulaylik yaratish orqali ularning imkoniyatlarini oshirib, ilm yo‘lida sharoit yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Navoiyning ulkan ijod ummonidan har kim o'z idishiga siqqunchalik — aqlu tafakkuri qodirligi qadar bahramand bo'lishi mumkin. Shuurimizni obi rahmat kabi yashnatguvchi, dimog'imizni gulob kabi xushbo'y iforga burkamish bu aziz ne'matni ichgan sari chanqog'imiz oshgani-oshgan, ruhimiz oroyish, qalbizimiz osoyish topganidan bu huzur mahzaniga oshiqligimiz chandon ortib, uning tub-tubida — billur chig'anoqlar ichra gizlanib yotgan ma'no javohirlarini topmoq istagi tug'iladi ko'nglimizda.



Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Shoir ijodida inson ham ilohiy, ham bashariy, ham mutlaq, ham muvaqqat bir mavjudlik o'laroq talqin etilishini kuzatamiz. Barcha mutasavvuf shoirlar singari hazrat ijodida ham ruh va nafs, shu orqali yaxshilik va yomonlik, nur bilan zulmat o'rtasidagi azaliy ziddiyat bosh mavzu bo'lib, olamni mukammal ko'rmoq istagi, komil inson g'oyasi zuhur etib turadi.

Unga ko'ra, bashariy his, mayl, ehtiyojlar girdobiga tushib, o'tkinchi kundalik o'y-tashvishlardan bosh ko'tarmasak, ruh va ruhiy hayot mavjudligi, unga oidligimizni unutsak, nafs g'alayoni va isyonidan vujudagi musafiq fazilatlar yo majruhlanadi, yo butkul zavol topadi. Zero, suvratdan siyratga boqmoq, siyratga tayanib suvratni tasvirlash ham ma'rifat belgisi, ya'ni basirat ochiqligidan.

“Mahbub ul-qulub”da shu xususda so'z yuritir ekan, Amir Alisher olam va odam, davr va shaxs, ko'ngil istaklari va falak evrilishlari haqida dunyo hamda uning asl mohiyatini tushuntirish orqali mulohaza yuritadi. Tashxis san'ati yordamida yulduzlar to'la falakni yamoqli to'n kiygan hiylagar toshob — ko'zbo'yamachiga, dunyoni esa pardoz tufayli xushbichim ko'rinadigan makkora yalmog'izga qiyoslab, foni y dunyoda bularning hiylasiga aldanish hasratidan ogohlantiradi.

G'alviga o'xshagan falakning chamberida yaxshiyu yomon, puku nopok — barcha insonlar birla yashashga mahkum. Falakning nayranglari tufayli ko'pincha gavharni oddiy toshdan ajratolmaydigan farosati yo'q odamlarga behisob mol-dunyo nasib etadi, sotqinlik va zulm qon-qonigacha singib ketgan egri niyatli odamlar mas'ul lavozimlarni egallaydi: bugun begunoh go'daklar qonidan, norasida yetimlar nomu jonidan zig'ircha qo'rtmay, ofat urushlari boshida turganlar ham shunday kimsalar aslida. Ba'zan esa to'g'riso'z, halol odamlar e'tibordan chetda qoladi. Eng zig'ir'i, bir muddat o'tgandan keyin ajal tig'i oldida yaxshi ham, yomon ham bir xil bosh egishga majbur. Shu sababli olam bebaqoligini bilgan, umr yaxshilik bilan ham, yomonlik bilan ham o'tishi muqarrarligini anglagan inson imkon boricha yaxshilik qilishi va o'zidan egzu nomni meros qilib qoldirishi dardkor. Mutafakkir buni, maqolatladi g'oyalarni bizga shoh Iskandarning hayotdan qo'li ochiq holda ketgani haqidagi hikoyat orqali teranroq tushuntiradi.

O'z davrida ana shunday yuksak insoniy, umumbashariy g'oyalarni badiiy barkamollik bilan ifodalab bergan adib asarlari asrlardan asrlarga, nasllardan nasllarga o'tib ardoqlanib keldi. U keyingi avlodlarning egzu umidlari, ajoyib orzulari zuhuri yo'lida ham ilhomboxsh kuchga aylandi. Alisher Navoiy yaratgan bebaho adabiy merosi orqali o'zidan keyingi davrlarda qalam tebratgan barcha turkiyzabon ijodkorlar uchun ustozlari, ma'naviy mayoq bo'lib xizmat qilgani, Ogahiydan tortib, Erkin Vohidovgacha unga ijodiy iqtidoda bo'lgani, ya'ni ular zamonlar osha eskirmas, o'zgarmas musaffo chashmadan suv ichib, muqaddas turkiy tuproqda ildiz otgani bir tomon bo'lsa, jahon adabiyotida tutgan beqiyos ahamiyati, dunyoning turli tillariga tarjima qilinib, keng o'rganilyotgani yana bir tomon.

Umuman, shoir ijodiga qiziqish, o'rganish adib hali tiriklik chog'idayoq boshlangan, xotirayu qaydnomalar bitilgan, bugunga kelib esa Navoiy hayoti va ijodini ham shaklan, ham mazmunan tadqiq etish keng ilmiy qamrov, sof ilmiy-nazariy

IZZAT VA MA'MURLIK



bo'stonida

yoxud Hirot ma'naviy muhitida — Amir Alisher

yondashuvlar bilan hamon faol davom etmoqda. Shubhasiz, hali to'la o'rganilmagan, xolis ilmiy bahosini olmagan jihatlari bisyor. Shulardan biri sobiq itifoq davrida sinfiylik nuqtayi nazaridan atay chetlab o'tilgan saroy adabiyoti hamda temuriy hukmdorlar, xususan, Husayn Boyqaro huzurida, bevosita Navoiy ishtirokidagi adabiy majlislar tarixini ko'rsatib berish, umumadabiy jarayon bilan bog'lab, muayyan tarixiy aspektga xolis yoritish masalasidir.

She'riyatning “oliy majlisi”i

Qadimdan Sharq mamlakatlari hukmdorlari huzurida she'riyat va adabiyotga bag'ishlangan yig'inlar o'tkazish odat bo'lib, tarixiy manbalarda bunday anjumanlar “majlis”, “oliy majlis” deb zikr etilgan. Yaqin va O'rta Sharq saroylarida yoki katta yig'inlar doirasida shoir-lar ishtirokida she'rxonlik majlislarini tashkil etish asrlar davomida mustahkam an'anaga aylangan. Bunday adabiy yig'inlar, bir tarafdin, mumtoz adabiyot taraqqiyotiga, iqtidorli qalam sohiblari kamol topishi va tanilishga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda ishtirok etgan olimlar, fozillar, shoirlar va badiiyat ahli orqali mamlakat hamda homiy sultonning shuhrati yetti iqlimga yoyilib, nomi abadiylikka muhrlanishida muhim o'rin tutgan. Xususan, ulamolar bilan suhbat qurish, ilmiy bahs va munozaralarda ishtirok etish Sohibqiron Amir Temurning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri hisoblangan. “Temur tuzuklari”da u o'zining ulamo bilan muloqot qilgani, pok niyatli, sof qalbli insonlarga yaqin bo'lgani, g'iybatchi va behayo kishilarni majlisiga yaqin qo'ymagani haqida bayon etadi. Shuningdek, u majlis ahli bo'lgan sayyidlar, olimlar, fozillar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar va roviylarga munosib ravishda suyrug'ol, nafaqa va maosh belgilashni buyurgan. “Temur tuzuklari”da qayd etilishicha, Sohibqiron saroyidagi ulamolar va shayxlardan diniy, huquqiy, aqliy, halol-haromga oid masalalarni o'rganib borgan.

Amir Temurning bunday yig'inlarni mumtazam uyushtirgani sababini Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari orqali anglash mumkin. Zero, u hazrati Ali ibn Abutolibning “Majlis ul-ilmi ravzat ul-jannati”, ya'ni “Ilmiy majlis janнат gulshaniga o'xshaydi”, degan hikmatiga amol qilgan. Navoiy ushbu fikrni she'riy shaklida quyidagicha ifoda etgan:

*Kim olim esa nuktada barhaq de ani,
Gar hazm tuzar, bihishti mullaq de ani.
Har kimsaki, yo'q ilm anga ahmaq de ani,
Majlisdaki ilm bo'lsa, uchmaq de ani.*



Temuriy sultonlar an'anasini davom ettirgan holda bunday ilmiy-ma'rifiy yig'inlar sulton Husayn Boyqaro huzurida ham mumtazam o'tkazilgan. Navoiy bu haqda “Layli va Majnun” dostonida to'xtalib, Husayn Boyqaro rahbarligida o'tgan ulamolar majlisini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Uning bayoniga ko'ra, ilmda yetuk insonlar ham bu majlisga kelganda hukmdor oldida hayratda qolib, so'zlay olmay qoladilar. Din ilmi, xususan, fiqh sohasida mohir bo'lganlar masala ko'yganda sulton ularga nisbatan yuzlab asosli savol va shubhalarini keltirar, aloqiboat masala ko'targan faqih javobsiz qolar, shoh esa barcha muammolarni o'zi hal etib berardi.

Bundan anglashiladiki, ana shunday majlislar o'z davri musulmon mamlakatlari uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki islom davlatining yetuk ulamolari jam bo'lgan yig'ilishlarda barcha to'planib qolgan masalalar muhokama qilingan. Temur ham, Husayn Boyqaro ham yig'inlarda ulamolar bilan teng bahsga kirishgani, diniy masalalarga yechim topgani hukmdorlarning bilimdonligidan, olimligidan dalolat edi.

Albatta, temuriylar davri madaniy muhitining yorqin sahifasini turkiy (eski o'zbek) adabiyotining rahislasiz tasavvuri to'q olmaydi. Zero, ildizlari uzoq o'tmishlarga borib taqaladigan ushbu adabiyot mazkur davrga kelib, yanada sayqallanib, badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, yangi ufqlar sari yuz tutdi hamda yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Ijod maydoniga yangi-yangi nomdor shoir va adiblar kirib kelib, betakror, umrboqiy asarlari bilan badiiy tafakkur xazinasini boyitdi.

Ana shu she'riyat ahlining nom qozonishi, shakllanishi hamda nodir asarlar vujudga kelishida she'riy majlislar alohida o'rin tutadi. Mazkur davr adabiy muhitining o'ziga xos yana bir jihati, har bir shahar va manzilgohdagi ziyolilar xonadonlari,

ko'chirib yoziladigan hamda shaharlaru manzillarda mutolaa qilinadigan darajaga yetgan bo'lishi talab etilgan. Uchinchidan, she'rdan ko'zlangan eng oliy maqsad podshoh nomini abadiylashtirishdan iborat va agar she'r o'qilmasa, ko'paytirilmasa, bu maqsadga erishib bo'lmaz edi. Bunday darajaga yetmagan asarning ta'sir quvvati zaif bo'lib, boqiylik xususiyatiga ega bo'lmagan she'r boshqa kishilarning nomini qanday qilib manguqlikka aylantira olishi mumkinligi shubha ostida qolardi.

Bu borada Kaykovus “Qobusnoma” asarida shoirlikka da'vogarlarga muhim pand-nasihatlar beradi. Unga ko'ra, shoir bo'lishni istagan kishi so'zini shunday aytishi kerakki, boshqalar uning ma'nosini sharhlashga muhtoj bo'lsin, shu bilan birga, she'r xalq va majlis ahli uchun yaratilishini unutmasin. Bir xil vazn va qo'fiyaga qanoat qilmalik, san'atsiz va tartibsiz misralardan qochish, ohangdorlik, musiqiylik va mukammal vaznga e'tibor berish zarurligi ta'kidlanadi. Shoir san'atining nozik jihatlardan bexabar qolmasligi ham muhim shart sifatida qayd etiladi.

Demak, hukmdorlar majlisida qatnashuvchi shoir-larga yuqori saviyada talablar qo'yilgan. Ularning ayrimlari esa sultonga sirdosh, hamsuhbat, mahram va maslahatchi, bir so'z bilan aytganda, nadim maqomiga erishgan. Temuriylar, ayniqsa, Husayn Boyqaro saroyidagi nadimlarga quyidagi shartlar belgilangan: forsiy va arabiy tillarda insho yoza bilish, she'riyat ilmini egallash va ko'plab forsha hamda arabcha baytlarni yoddan o'qish, tib va nujum ilmidan xabardor bo'lish, sozandalik sirlaridan voqiflik, taqlid san'atini bilish, qiziq hikoyalar, hikmatli so'zlar va nodir qissalarni yoddan bayon qila olish, nard va shaxmat o'yinlarini bilish, Qur'on tilovati, tafsir, hadis hamda shariat ilmlaridan xabardorlik.

Nizomulmuluk “Siyosatonoma” asarida nadimlikning foydasi va shartlarini sanar ekan, nadim fozil, chiroyli muomalali, pokmazhab, sir saqlovchi, ozoda kiyingan, hikoya va latifalarni ta'sirli qilib so'zlay oladigan bo'lishi lozimligini qayd etadi. Shuningdek, har bir nadimning saroyda o'ziga xos martabasi bo'lib, ayrimlari o'tirib, ayrimlari esa tik turib xizmat qiladigan maxsus maqomga ega bo'lgan.

Husayn Boyqaro davrida nadimlar “musohib” deb atalgan. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida Alisher Navoiy Husayn Boyqaroning musohibi bo'lgani haqida ma'lumot berib, “*Alisherbek Navoiy begi emas edi, balki musohibi edi*”, deb yozadi. Navoiy qomusiy lug'atida ham musohib o'rta asr saroy lavozimlaridan biri sifatida izohlangan. Bu esa buyuk mutafakkir shoirimiz benazir adabiy meros qoldirish bilan bir qatorda dono vazir, oqil

maslahatchi, xalq va san'at homiysi sifatida sulton bilan yonma-yon turib, el-yurt ravnaqi yo'lida beqiyos zahmat chekib, ulusning hayoti ravon, turmushi farovon bo'lishi uchun astoydil xizmat qilganini yana bir karra tasdiqlaydi.

Uning ilm, tasviriy san'at va musiqa ilmi sohiblariga alohida ehtiromi va mehrini ham ta'kidlash lozim. Misol uchun, yuqoridagi kabi majlislarda doimo hofiz va sozandalar xizmat qilgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, bu davr xonadonlari ko'pincha shoir ham bo'lib, majlislarda musiqa jo'rligida she'r-lar o'qish an'anaga aylangan. Bu holat faqat Husayn Boyqaro saroyi bilan cheklanmay, boshqa temuriy hukmdorlar majlislarida ham kuzatilgan.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida xalq qo'shiqchiligining sakkiz turi rivojlanganini qayd etadi. Bular — tuyuq, changchi, turkiy, orzuvoiy, muhabbatnoma, mustahzod va shu kabilar. Temuriylar davri musiqa san'atida Hirot ijodiy muhitining o'rni katta bo'lgan. Hirot musiqashunoslari o'z ijodlarida Navoiyning she'r va g'azallaridan keng foydalangan.

Eronlik olim Valiulloh Kovusiy mazkur adabiy yig'inlarni musiqiy majlislar deb qayd etib, “Sulton Husayn va shahzodalarning musiqaga qiziqishi va Alisher Navoiyning sozandalarga ko'rsatgan homiyligi tufayli saroy san'atkorlarning intiladigan markaziga aylandi. Tarixchilar o'sha davrdagi Sulton Husayn va vazirining farmoni bilan uyushtirilgan benazir musiqiy majlislar haqida ko'p bora yozishgan. Amir Alisher Navoiyning himmati bilan tashkil etiladigan ko'p musiqa majlislarida sozandalar va xonandalardan tashqari zamonasining ko'plab fuzalo va donishmandlari ham ishtirok etishardi”, deya ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy dargohida ham xuddi shunday she'riyat kechalari tashkil etib turilgan. Navoiyning adabiyot ahliga ko'rsatgan g'amxo'rligi samarasi o'laroq, Movarounnahr va Xuroson ziyolilari uning atrofiga — majlislarida tez-tez jam bo'lgan. “Mahbub ul-qulub”da Navoiy o'zi tashkil etgan ana shunday majlislarni qayd etgan: “Goho izzat va ma'murlik bo'stonida majlis qurdim... Ulug' kishilarni va yuqori mansab egalari hurmat va ta'zim yuzasidan mehmon qildim va ba'zan shodlik bog'ida ziyofat tuzib, xonanda va sozandalarning bazmu taronalaridan bahramand bo'ldim”.

Amir Alisher huzuridagi bunday kechalarga qatnashish hammaga ham nasib qilavermagan. “Olimlarning ulug'lar qachonki Navoiyning oliy darajadagi yig'inlarida qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritishsa, uning samimiy qalbi sirlari sahifalaridan foydali marvaridlari yig'ishar, fozillarning mashhurlari qachonki ul hazrat o'tirgan muborak gilamning bir chetida o'tirish sharafiga ega bo'lishsa, nozik fikrlar va nafis so'zlar gavharlarini terishgan”, deydi bu haqda Xondamir “Makorim ul-xalq” asarida. Ushbu suhbatlarda odatda olimu adiblar va shoir-larning yangi asarlari muhokama qilingan va bu yig'inlarning Husayn Boyqaro oliy majlislaridan farqi shundaki, Navoiy sinovidan o'tgan shoiru hofizlar, qissaxonu qasidago'yilar, muammogo'yilar, turli sohadagi yuksak iste'dod sohiblari podshoh oliy majlislariga tavsia etilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'tmish adabiy jarayonida mushoiralar alohida va hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan, aniqrog'i, adabiy muhit asosan she'riy majlislar, shoir-lar anjumanlari orqali shakllangan. Ana shu mushoiralar maydonida qalam sohiblari o'z asarlarini taqdim etgan, ular haqidagi mulohazalarni tinglagan, ijodiy fikr almashuv orqali o'z mahoratini sayqallab borgan, hamfikr va hammaslak ijodkorlar bilan ma'naviy yaqinlikka erishgan. Bu jarayonlar adabiyotni faqat shaxsiy ijod mahsuli darajasida qoldirmay, uni jamoaviy tafakkur darajasiga ko'targan, bu orqali ma'naviy mas'uliyat va badiiy kamolot mezonlari qaror topgan.

Navoiy adabiy majlislari o'z davri o'zbek adabiyotining ravnaqiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan. Mehribon ma'naviy rahbar, nozikta'bi tanqidchi, saxiy homiy, ijod ahliga g'amxo'r shaxs xonadonidagi majlislarda uning bolalik yillarida o'qitilgan bo'lgan she'riyat yig'inlarining ta'siri ham yaqqol seziladi. Zero, uning uyi azaldan olimlar, shoir-lar, fozillar to'planadigan, fikr va ma'rifat almashuvi kechadigan maskan bo'lganki, biz hali Amir Alisherning aziz ustozlari, keyinchalik yaqin do'stlari, shogirdlari, ulamolar bilan xos suhbatlari haqida to'xtalmadik. Negaki u alohida, qamrovi bir maqolaga joy bo'lishi mushkul katta mavzu. Ayonki, ana shu muhit shoir shaxsiyatining kamol topishiga, uning dunyoqarashi va ijodiy tafakkurining mustahkamlanishiga zamin yaratgan.

Hazrat ilgari sulton va g'oyalari, uning beqiyos badiiy merosi, inson va jamiyatga bo'lgan mas'uliyatli munosabati bugun ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. U barpo etgan ma'naviy muhit, ijodkor shaxsiga hurmat, muqaddas so'zga ehtirom har bir davr uchun beqiyos ibrat manbadir. Zamonlar almashsa hamda ma'rifatga tayangan taraqqiyot, ijod ahliga suyangan ma'naviy yuksalish tamoyili hamisha barqaror bo'lib qolaveradi.

Demak, o'tmish mushoiralari tajribasi, muhit va uning zamondoshlari yaratgan adabiy muhit bugungi ma'naviy hayot uchun ham ichki tayanch, ilhom manbai vazifasini o'taydi. Ushbu an'analar orqali adabiyot faqat so'z san'ati sifatida emas, balki insonni yuksaltiruvchi, jamiyatni birlashtiruvchi, ma'naviy yo'l ko'rsatuvchi qudrat sifatida namoyon bo'ladi.